YOSHLAR TARBIYASIDA SHARQ MUTAFFAKIRLARINING AXLOQIY QARASHLARI

Sobirov Jamshidbek Xasanboy o‘g‘li
Namangan viloyati Norin tuman 2-son kasb-hunar maktabi YOBIBDO‘

Annotatsiya: Ulug‘ mutaffakirllarning axloqiy qarashlari, Sharqda yashab ijot etgan allomalar fikrlari, axloqiy qarshlari va ular yozib qoldirgan asarlarining ma’zmun-mohiyatini tahlil qilgan holda, hozirgi kunda pedagogika sohasida malakali mutaxassis bo‘lishga, Yosh avlodga ta’lim berayotgan har bir pedagog bu qarashlarni o‘rganib chiqishi talab e’tiladi. Maqolamiz ana shu qarashlar haqida boradi.
Kalit so‘z: falsafa, insoniylik, odob, axloq, go‘zal xulq, mardlik, ta’lim, tarbiya, pedagogika, didaktik.
Аннотация:Анализируя нравственные воззрения великих мыслителей, мысли и нравственные возражения ученых, живших на Востоке, и содержание их письменных трудов, каждый педагог, обучающий молодое поколение стать квалифицированным специалистом в области педагогики, сегодня изучает необходимый. Наша статья как раз об этих взглядах.
Ключевые слова: философия, человечность, нравы, этика, хорошие манеры, мужество, воспитание, воспитание, педагогика, дидактика.
Annotation: Analyzing the moral views of great thinkers, the thoughts and moral objections of scientists who lived in the East, and the content of their written works, every teacher who teaches the younger generation to become a qualified specialist in the field of pedagogy, today studies the necessary. Our article is about these views.
Key words: philosophy, humanity, morals, ethics, good manners, courage, upbringing, education, pedagogy, didactics.

Bizga malumki IX-XII asrlarda Sharq uyg‘onishining oltin davrini boshlab berdi. Sharqda ma’naviy-ma’rifiy sohada asosiy masala inson muammosi bo‘lib, insoniylik, insonni ulug‘lash g‘oyasi ta’lim-tarbiyaga oid asarlarning asosiyda rivoj topdi. Bunday asarlar islom dinni tasirida yozilgan bo‘lib, u pand-nasihat, odob-axloq, yaxshlikka yo‘naltiruvchi omillar yuqori o‘rinda turgan.

Sharq Uyg‘onish davri falsafasi va pedagogikasida ta’limiy-axloqiy yo‘nalish muhim bo‘lgan. Axloq masalasi faylasuflarning ham, tarixchi-yu shoir hamda adiblarning ham birdek diqqat markazida bo‘ldi. Ta’limiy-axloqiy risolalar paydo bo‘lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil e’tildi. «Qutadg‘u bilig», «Qobusnoma», «Hibbat ul-haqoyiq», «Guliston», «Bo‘ston», «Axloqi Jalohy»,«Axloqi Nosiriy», «Axloqi Muhsiniy», «Mahbub ul-qulub» kabi Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa’diy, Nasiriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jalohddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiyning ta’limiy-axloqiy asarlari yuqorida ta’kidlaganimiz inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal e’tish sohasida yaratilgan sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga hisoblandilar. Asarlarda ta’limiy-axloqiy masalalar insonning ma’naviy kamolga ye’tishishi yuksak axloqqa ega bolishi, ilm-fanni egallashdagi g‘oya ilgari surilgan.

Sharq Uyg‘onishi davri ma’naviy-ma’rifiy va axloq haqidagi fikrlatni quydagi asarlarda ham ko‘rishimiz mumkin.

Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asari – baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta’lim degan ma’noni bildiradi. Asar nomidan ham uning pand-nasihat, ta’lim-tarbiyaga oid yetuk

https://wordlyknowledge.uz

didaktik asar ekanligini bilish mumkin. “Qutadg‘u bilig” asari Sharqda pandnoma turkumidagi an’anaviy kitob tuzish tartibiga rioya qilingan holda tuzilgan.

Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asariga e’tibor qaratsak, asar boblarda, asosan, bilimning ahamiyati, jaholatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqlilikning eng muhim xususiyatlari e’tirof etgan.

Asarda boshqa ta’limiy-axloqning asarlar kabi insonni barkamol e’tishning asosiy belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axloqiy tarkibiy qismi sanalgan tilni tiyish, mol dunyoga muhabbat qo‘yishning oqibatlari, saxovat va baxillik, kamtarlik, jinoyat yo‘lidan saqlanish haqida, xarom va halollikning farzlari, ularni bir-biridan farqlay olish, e’tiqod va sadoqat kabi masalalar ustida fikr yuritadi.

Endi e’tiborimizni Kaykovusning “Qobusnoma” asariga yo‘naltiramiz! Kaykovusning o‘zi ta’kidlaganidek, butun bir asar oxirgi bobda ta’rif berilgan javonmardlar tarbiyasiga bag‘ishlangan. Kaykovus «... barcha fikr va tushunchalarim sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, har hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to‘rt bobda bayon etdim» deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog‘langan holda kamolga etkazish yo‘llari va usullarini bayon etgan. Kitobda javonmardlar egallashi zarur bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarda ta’lim-tarbiya berish nazariyasi ko‘zda tutilgan:

1. Bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3.Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

Asar ma’zmunida kelib chiqqan holda, javonmard uch narsadan iboratligini bilish mumkin.

1. aytgan so‘zni o‘zi amalga oshirish;
2. rostlikka xilof ish qilmaslik;
3. xayir ishni ilgari tutishlik;

U odamdagi qolgan barcha sifatlar bu uch narsaning ostida ekanligini ta’kidlaydi.

«Qobusnoma»da jismoniy tarbiyaga ham katta ahamiyat berilgan bo‘lib, asardagi «Shikorga chiqmoq zikrida», «Urush qilmoq zikrida», «Chavgon o'ynamoq zikrida», «Sipohsolarhk shartlari va odatlari zikrida» va boshqa boblarda ko‘rishimiz mumkin.

Kaykovus Pifagor aytgan quyidagi o‘n xislatni har bir kishi o‘zida tarkib toptirishini ta’kidlaydi. Bular: o‘zidan zo‘r kishi bilan urishmaslik; hasadchi kishi bilan birga jamoat o‘rtasida o‘tirmaslik: riyokor, ikki yuzlamachi kishi bilan do‘st bo‘lmaslik: yolg‘onchi kishi bilan muomala qilmaslik: baxil bilan suhbatda bo‘lmaslik; g‘ayr, dushman kishi bilan sharob ichmaslik; xotinlar bilan bir yerda o‘tirmaslik; kishilarga sir aytmaslik; biror kishi aybingni aysa, shu aybni yo‘qotishga harakat qilish; biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamaslik; muxtoj bo‘lgan odamni gina, qahr bilan qo‘rqitmaslik; gunohkorning gunohini avf e’tish; kichiklarga mehribon bo‘lish; bir ishni ikki kishiga buyurmaslik kabi hayotiy tavsiyalarni keltiradiki, inson o‘z hayotida har bir daqiqada bunday hatti harakatlarga duch keladi. Kaykovus ham “Qobusnoma” asarini yozishdan maqsad o‘z o‘g‘li Gilonshohgina emas, balki butun mamlakatidagi fuqorolariga murojat qilgan desak bo‘ladi. Asarda dehqonchlikdan tortib to shohlikka qadar o‘z o‘gitlarini berib o‘tgan.

Sharq Uyg‘onishi davrida ta’lim-tarbiyaga oid ko‘plab allomalarning qarashlari e’tirof etsak bo‘ladi.

Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo‘shdi. U birinchilardan bo‘lib, induksiya, deduksiya, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi. U birinchi marta insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi. Hindlarning o‘nlik raqamlari Xorazmiy tufayli «Arab raqamlari» nomi bilan butun dunyoga yoyildi. Xorazmiy

https://wordlyknowledge.uz

hindlarning falakiyot jadvallarini tahlil e'tib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashxur astronomik jadvallar tuzdi.

Abu Nasr Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir: Ta'lim – so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya – esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilxomlantiruvchi so'zlar va majbur e'tish.Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo'ladi. Beruniy ta'limotiga ko'ra inson kamolotida uch narsa muxim ro'l o'ynaydi:

1.Irsiyat. 2.Muhit. 3.Tarbiya.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir.

Ibn Sinoning Ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari fikricha insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, o'ch olish, adovat, bo'xton, irodasizlik kabilardir.

U fanlar tavsifi haqida ham fikr bildirgan. Olim birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga-nazariy va amaliy guruhga bo'ladi. U birinchi guruhga e'tika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruxga fizika, matematika, metafizika dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritgan.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'kitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda quyidagilarga rioya e'tish zarurligini ta'kidlaydi: 1) bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik; 2) ta'limda yengildan qiyinga qrab bilim berish; 3) olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi; 4) o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish; 5) bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; 6) o'qitishni jismoniy mashqlar bilan ko'shib olib borish.

Ibn Sinoning shaxsiy faolyati dunyoviy ilmlarni o'rganish haqidagi ta'limotlari, talim-tarbiya haqidagi mulohazalari umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida yuksak o'rinni egallaydi.

IX-XII asrlarda ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy masalalari markazda bo'lgan. Yosh avlodni tarbiyasida bular muhim kasb etganligini allomalarimiz yaxshi bilishganlar. Ularning pand-nasihat, odob-axloq, yaxshlikka yo'naltiruvchi asarlar asosiy diqqat markazida bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda shu davr bilimlaridan keng foydalanib, yosh avlodni ma'naviy, axloqiy, yaxshlikka moyilligini, savotxonligini va h.k.larini yanda oshirish maqsadga muofiqdir. Pedagogik sohada faoliyat olib borayotgan har bir pedagog Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Nasiriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jalohddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy asarlarini ko'proq mutola qilish o'z bilimlarini oshirish kerak!

Foydalangan adabiyotlar:

1. K. Hashimov, S. Nishonova "Pedagogika tarixi" II qism Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti T. – 2005. Bet-97

2. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy "Al-Jomi' As-Sahih (ishonarli to'plam) 3-jild, bet-149.

3. Kaykovus " Qobusnoma" Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi 2- nashri "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2018 bet-257

https://wordlyknowledge.uz